Yangi O'zbekistonda turizmni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ichki va tashqi turizm oqimini kengaytirish, ekologik, tarixiy-madaniy, ziyorat, qishloq va MICE turizm yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha muhim dasturlar qabul qilindi. Mazkur jarayonlarda inson kapitalining sifati va malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Turizm xizmatlari sohasi o'zining mavsumiyligi, xizmat ko'rsatish sifati, kommunikativ kompetensiyalar, raqamli texnologiyalar va xalqaro standartlarga moslashuvchanligi bilan boshqa tarmoqlardan ajralib turadi. Shu sababli ushbu soha uchun kadrlar tayyorlash tizimi ham zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda



takomillashtirilishi zarur. Ayniqsa, hududlarning turistik ixtisoslashuvi, ekoturistik marshrutlarning kengayishi, xizmatlar diversifikatsiyasi va raqamli texnologiyalar joriy qilinishi malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Bugungi kunda mintaqaviy turizm sohasida kadrlar qo'nimsizligi, mavsumiy bandlik, amaliy tajribaga ega mutaxassislar yetishmasligi hamda xizmat ko'rsatish sifati bilan bog'liq ayrim masalalar mavjud bo'lib, ular turizm xizmatlari samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, zamonaviy ta'lim mexanizmlarini joriy etish va hududiy ehtiyojlarga mos kadrlar siyosatini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi mintaqaviy turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda turizm xizmatlari bozorida bandlikni oshirish va sohani barqaror rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yangi O'zbekiston hududlarida turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida kadrlar tayyorlashning iqtisodiy mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalari hamda o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida turizm sohasi uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahon va O'zbekistonning ko'plab olimlari turizm sohasini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash tizimining ahamiyati bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, M. Amonboyev "Образовательная модель подготовки будущего специалиста индустрии туризма" nomli maqolasida turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimi yuzasidan o'z tadqiqotlarini bayon etib, ish beruvchilarning bitiruvchilarga qo'yadigan asosiy talablaridan biri universitetda tahsil olish davrida o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti orqali yetarli ish tajribasiga ega bo'lish ekanligini ta'kidlaydi [1].

S. Safayeva "O'zbekistonda turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash muammolari" nomli maqolasida menejer va marketologlar turizm sohasida erkin faoliyat yurita olishi, turizm bozori hamda turistik mahsulotlarni ilgari surish mexanizmlarini bilishi, insonlar bilan samarali ishlashi, o'zining va boshqalarning xatti-harakatlarini tahlil qila olishi zarurligini qayd etadi. Muallif turizm sohasiga kadrlar tayyorlashda aynan amaliy ko'nikmalar va kommunikativ kompetensiyalarga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi [2-3].

L. Bekmurodova "Turizm va mehmondo'stlik sanoatida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish istiqbollari" nomli tadqiqotida zamonaviy turistik firmalar va mehmonxonalariga innovatsion texnologiyalarni qo'llay oladigan, turistlarning ortib borayotgan ehtiyojlarini va jahon turizm industriyasidagi innovatsion tendensiyalarni hisobga oladigan, kuchli raqobat sharoitida boshqaruvning murakkab masalalarini samarali hal qila oladigan yuqori malakali mutaxassislar zarurligini ta'kidlaydi [4].

S. Sunnatova "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash muammosi va ularga qo'yilgan talablar" nomli maqolasida turizm sohasini rivojlantirish samarali hamkorlik tizimi va kadrlar tayyorlash sifati bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadi. Muallif turizm sohasi rivojida "inson omili" muhim ahamiyatga ega ekanligini va bu jarayon ta'lim tizimining rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq ekanligini asoslab beradi [5].

A. A. Gorshkovich "Практический подход при подготовке кадров в сфере туризма: проблемы и перспективы" nomli maqolasida ichki turizmning faol rivojlanishi va turizm bozorida zamonaviy tendensiyalar, ayniqsa 2020-yildan keyingi davrda, malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirganini ta'kidlaydi. Muallif o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi hamda bakalavriat bosqichidagi o'quv dasturlarini zamon talablariga mos ravishda yangilash, talabalarning amaliyot o'tash tizimini sifat jihatidan rivojlantirish va ta'lim jarayoniga amaliy yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish lozimligini qayd etadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot doirasida mintaqaviy turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Jumladan, induksiya va deduksiya usullari orqali turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimining umumiy va xususiy jihatlari o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida xorijiy davlatlar hamda O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tajribalar o'zaro taqqoslandi. Shuningdek, mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar o'rganilib, ular

asosida tahliliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, mehnat resurslari tarkibidagi o'zgarishlar hamda ish bilan band aholining ulushi mintaqaviy turizm sohasini rivojlantirishda muhim iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni tahlil qilish orqali turizm sohasi uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari salohiyatini aniqlash, mavjud bandlik holatini baholash va istiqboldagi kadrlar ehtiyojini prognoz qilish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, turizm sohasi bo'yicha mustaqil ravishda ta'lim olayotgan yoki ish qidirayotgan fuqarolar soni, ularning umumiy aholi hamda mehnat resurslaridagi ulushini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko'rsatkichlar hududlarda kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini oshirish bo'yicha amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oluvchi jadvalni shakllantirish tavsiya etiladi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorini rivojlanishi va uning holati¹

T/r	Ko'rsatkichlar	2016-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024-yilda 2016-yilga nisbatan o'zgarish, %
1	Mehnat resurslari, ming kishi	18488,9	19334,9	19517,5	19739,6	19976,2	108,2
2	Ish bilan band aholi, ming kishi	13298,4	13558,9	13706,2	14014,2	14309,3	107,6
3	Ishsizlar soni, ming kishi	724,1	1441,8	1332,7	1024,1	912,3	125,9
4	Mintaqaviy turizm sohasiga ishga qabul qilinganlar soni, birlik	48284	69848	78633	82346	85297	176,6

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda 2016–2024-yillar davomida mehnat resurslari soni 108,2 foizga oshgan. Shu davrda ish bilan band aholi sonining o'sish sur'ati 107,6 foizni tashkil etgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur davr mobaynida ishsizlar soni ham 125,9 foizga oshgan bo'lib, faqat 2020–2021-yillarda ushbu ko'rsatkich nisbatan kamayib, 38,3 foiz darajasiga tushgan.

Shu bilan birga, mintaqaviy turizm sohasiga ishga qabul qilinganlar soni 176,6 foizga ko'paygani kuzatiladi. Muhim jihati shundaki, turizm sohasida band bo'lganlar sonining o'sish sur'ati mehnat resurslari sonining o'sishiga nisbatan yuqori bo'lgan. Bu esa mintaqaviy turizm sohasida yangi ish o'rinlari yaratish va aholini bandlik bilan ta'minlash jarayonlari jadallashayotganidan dalolat beradi. Mazkur ijobiy tendensiyani davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur muammoni hal etishda mintaqaviy qishloq turizmini rivojlantirish muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash orqali turizmni rivojlantirish va aholi bandligini oshirish yo'nalishlari bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni³ hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarorida⁴ belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Mehmonxona biznesida xizmatlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni samarali boshqarish xizmat sifati va faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi. Turizm xizmatlari sohasi bugungi zamonaviy

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

2 <https://lex.uz/uz/docs/-4143188>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

4 <https://lex.uz/docs/-6303230>




iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi turizm hududlari bo'yicha Wi-Fi nuqtalarining asosiy ko'rsatkichlari ham turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasini aks ettiradi. 2024-yilda respublika bo'yicha jami Wi-Fi nuqtalari soni 10 376 tani tashkil etgan. Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Toshkent viloyatida (4094 ta), Buxoro viloyatida (454 ta) va Navoiy viloyatida (351 ta) qayd etilgan. Mazkur hududlarda turizm infratuzilmasining rivojlanganligi Wi-Fi nuqtalari sonining yuqoriligi bilan ham bevosita bog'liqdir (3-jadval).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turistik resurslarni samarali taqsimlash, turizm sohasining barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda turistik daromadlarni adolatli shakllantirish turistik bozor infratuzilmasi mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga layoqatli, biroq moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida faoliyat yuritmayotgan aholini, yangi ish qidirayotgan fuqarolarni hamda mehnat yoshiga yetayotgan yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Mintaqaviy turizm sohasi uchun malakaviy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlari⁵

5 Muallif ishlanmasi.

Turizm xizmatlari sohasidagi mehnat bozori haqida so'z borganda, uning o'ziga xos xususiyatlarini alohida e'tirof etish zarur. Jumladan, turizm sohasidagi mehnat bozori mehnat resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy shakli bo'lib, unda ishchi kuchi xizmat ko'rsatish jarayonining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi hamda bozor mexanizmlari asosida shakllanadi.

Biroq, bu turizm xizmatlari sohasida to'liq shakllangan va barcha jihatlar bilan barqaror mehnat bozori mavjudligini anglatmaydi. Mazkur sohada ayrim hollarda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilishi kuzatiladi. Xususan, O'zbekistonda turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar tomonidan turizm mavsumiga qarab turoperatorlar, turagentlar, gidlar, ofitsiantlar, oshpazlar, menejerlar, maxsus transport haydovchilari hamda boshqa malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi.

Buning asosiy sababi turizm sohasining mavsumiy xarakterga egaligi bilan izohlanadi. Mavsumiylik ish vaqtining notekis taqsimlanishiga hamda to'liq band bo'lmagan mehnat resurslari ulushining ortishiga olib keladi. Natijada korxonalar uchun malakali xodimlarni ishga jalb qilish va ularni doimiy ravishda saqlab qolish muhim tashkiliy va iqtisodiy masalalardan biriga aylanadi.

Ayniqsa, mehnat bozori nazariyasiga ko'ra, mavsumiylik sharoitida mavsumdan tashqari davrlarda ish haqi hajmini qisqartirishdan ko'ra, ayrim hollarda xodimlarni vaqtincha ishdan bo'shatish holatlari kuzatilishi mumkin. Shu sababli turizm sohasida bandlikni barqarorlashtirish, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish hamda ularni yil davomida ish bilan ta'minlashga xizmat qiladigan mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur holatlar mintaqaviy turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish, dual ta'lim mexanizmlarini keng joriy etish, amaliyot bazalarini mustahkamlash hamda mavsumiy bandlikni kamaytirishga xizmat qiluvchi qo'shimcha xizmat turlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi turizm hududlari bo'yicha Wi-Fi nuqtalarining asosiy ko'rsatkichlari (yil boshiga, birlikda)⁶

№	Hududlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024 yilda -2020 yilga nisbatan o'zgarish (+:-)
Jami		4066	5991	9307	10011	10376	6310
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	60	70	86	104	109	49
2	Andijon viloyati	39	44	45	105	115	76
3	Buxoro viloyati	354	410	427	447	454	100
4	Jizzax viloyati	136	170	193	216	241	105
5	Navoiy viloyati	165	210	270	325	351	186
6	Namangan viloyati	70	155	261	315	331	261
7	Samarqand viloyati	100	161	190	248	265	165
8	Sirdaryo viloyati	36	53	67	79	87	51
9	Surxondaryo viloyati	30	74	114	155	227	197
10	Toshkent viloyati	940	2374	3951	4 051	4 094	3154
11	Farg'ona viloyati	51	59	61	85	93	42
12	Xorazm viloyati	18	21	24	38	76	58

Agar mazkur muammoni o'z vaqtida hal qilish bo'yicha samarali choralar ko'rilmasa, turistik kompaniyalar rahbariyati muntazam ravishda yangi xodimlarni ishga jalb qilishga majbur bo'ladi. Natijada, bir tomondan, korxonalar uchun kasbiy tayyorgarlik va qayta o'qitish xarajatlari ortadi, ikkinchi tomondan esa sohada kadrlar qo'nimsizligi darajasi yanada kuchayishi mumkin.

Shu bois, mintaqaviy turizm xizmatlari hamda unga aloqador turdosh tarmoqlarni jadal rivojlantirish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlashda, eng avvalo, sohadagi mavsumiylik masalasini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mavsumiylik muammosining bosqichma-bosqich bartaraf etilishi kadrlar qo'nimsizligining qisqarishiga, bandlik darajasining

6 O'zbekiston Respublikasi Turizm vazirligi ma'lumotlari.



oshishiga hamda mehnat unumdorligining yuksalishiga xizmat qiladi (2-rasm).




2-rasm. Turistik mintaqaviy 2016–2024-yillarda kadrlar qo'nimsizligi darajasi, (%)

Chunki “Mintaqaviy MICE turizmi” bir tarafdin malakali kadrlarni ish bilan band etishda mavsumga bog‘liq bo‘lmagan va mavsumdan tashqarida o‘z jozibadorligini yo‘qotmaydigan, o‘ziga xos xususiyatlar yega yangi turizm yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tarafdin uning yuqori sur‘atlarda rivojlanishi xorijiy sayyohlarning mamlakatga yil davomida doimiy tashrif buyurishiga hamda mintaqaviy turistik infratuzilma ishtirokchilari faoliyatining rivojlanishiga katta imkoniyat yaratadi. Mantiq nuqtai-nazaridan kelib chiqib tavsiyamizga doir fikrimizni quyidagilar bilan asoslamoqchimiz:

Birinchidan, “Mintaqaviy MICE turizmi” mavsumiylikka ega emas, MICE sayohatlari har qanday sharoitda va yilning istalgan vaqtida amalga oshiriladi (hattoki, global pandyemiya sharoitida ham turli chyeklovlarning kiritilishi ishbilarmonlik tashriflarini to‘xtatib qololmadi). Shuningdek, uning rivojlanishi myezbon hududdagi turizm infratuzilma obyektlarining yil davomida faol ishlab turishi va malakali kadrlarni ish bilan band etishni ta‘minlaydi.

Ikkinchidan, “Mintaqaviy MICE turizmi” mijozlari ularga taqdim yetilayotgan xizmatlar sifati va tyezligiga qarab boshqa yo‘nalishlardagi turistlarga qaraganda o‘ch-to‘rt barobar ko‘proq pul to‘laydi. Sababi, ishbilarmon sayohatchilarning aksariyati kompaniyalarning katta va o‘rta myenyeyerlari bo‘lganligi sababli ularga yuqori darajadagi (qimmat) xizmatlar ko‘rsatiladi. Bu mintaqalarda mavjud myezbon hudud uchun yani malakali kadr xizmati uchun yuqori daromad olish imkoniyati demakdir (3-rasm).



3-rasm. O‘zbekistonda “Mintaqaviy MICE turizm”ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi⁷

7 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Uchinchidan, mintaqalar kesimida konferensiya, kongress va boshqa xizmat safari maqsadida tashrif buyuruvchi “Mintaqaviy MICE turizmi” ishtirokchilari o‘ziga xos “elchi” vazifasini bajaradi. Chunki bunday sayohatchilar ko‘pincha yuqori malakaga ega, nufuzli va obro‘li mutaxassislar hisoblanadi. Ularning O‘zbekiston haqidagi fikr va taassurotlari o‘z mamlakatlarida milliy turizm imidjining shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, mintaqaviy ishbilarmonlik turizmining keng imkoniyatlari yangi turistik segmentlarni qamrab olish imkonini beradi. Shu bilan birga, ishbilarmonlik turizmi xizmatlarining kompleks xarakterga egaligi turizm bozoriga malakali kadrlar ishtirokida yangi turdagi xizmatlarni, jumladan autsorsing xizmatlarini joriy etishga zamin yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, mavsumdan tashqari davrlarda ham yangi ish o‘rinlarini yaratish va malakali kadrlar bandligini ta‘minlash imkonini beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, “Mintaqaviy MICE turizmi” O‘zbekiston hududlarida turizm sektorida malakali kadrlarni ish bilan ta‘minlashda mavsumiylik omilini kamaytirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Bunda mintaqaviy ishbilarmonlik muhitini yangi bosqichga olib chiqish, tashqi bozorda milliy turizmning ijobiy imidjini shakllantirish hamda hududlarda turizm infratuzilmasi obyektlariga investitsiyalarni faol jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, O‘zbekiston mintaqaviy turizmi sohasida “Mintaqaviy MICE turizmi”ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi (3-rasm).

O‘zbekistonda “MICE turizmi”ni rivojlantirishning mazkur tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi turizm sohasidagi mavsumiylik muammosini kamaytirish, aholi bandligini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha vazifalarni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Mazkur jarayonda muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi funksiyalarga ega bo‘lgan davlat asosiy rolni bajaradi, iqtisodiy mexanizm esa zarur vositalar va resurslarni taqdim etadi. Iqtisodiy mexanizmning yagona tizim sifatidagi muvofiqlashtiruvchi imkoniyatlari turizm sohasidagi funksiyalarni samarali amalga oshirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, O‘zbekiston sharoitida turizm xizmatlari sohasini jadal rivojlantirish, mintaqaviy turizm mehnat bozorida band bo‘lgan malakali kadrlar tarkibida turizmning ulushini oshirish hamda yangi ish o‘rinlarini muntazam yaratishning muhim shartlaridan biri sohadagi kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirish va mavsumiylik masalasini bosqichma-bosqich hal etishdan iboratdir. Ushbu dolzarb muammoni hal qilishning samarali yo‘llaridan biri sifatida mavsumiylikka kam bog‘liq bo‘lgan “Mintaqaviy MICE turizmi”ni jadal rivojlantirish hamda uni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish zarurligi tadqiqot davomida asoslab berildi.

Markaziy turistik mintaqaga kiruvchi Samarqand viloyati Zarafshon va Turkiston tog‘lari, shuningdek Nurota tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan bo‘lib, hududning tabiiy-rekreatsion salohiyati yuqori hisoblanadi. Viloyatda mintaqaviy turizmni barqaror rivojlantirish maqsadida tog‘li hududlarning o‘xshash xususiyatlari asosida hududiy tahlillar olib borildi.

Jumladan, “Omonqo‘ton”, “Qoratepa”, “Yuqori Tersak”, “O‘rta Tersak” va “Tersak” qishloqlarida malakali porterlar, turistik xizmat ko‘rsatuvchi majmualar hamda umumiy ovqatlanish shoxobchalarini tashkil etish asosida yangi turistik marshrutlarni joriy qilish orqali mintaqaviy turizmni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Samarqand viloyatining tog‘li hududlari turistik salohiyati tahlil qilinib, quyidagi ekoturistik marshrutlar o‘rganildi:

- “Ohalik” ekoturistik marshruti;
- “Mironko‘l” ekoturistik marshruti;
- “Hazrati Dovud” g‘ori;
- “Urgut” ekoturistik majmuasi;
- “Omonqo‘ton” ekoturistik marshruti;
- “Taxti-Qaracha dovoni” ekoturistik marshruti;
- “Qirqtov” ekoturistik marshruti.

Eng avvalo, turistik ixtisoslashgan zona sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan obyektlar tahlil qilindi. Turistik ixtisoslashgan zona — bu maxsus hudud bo‘lib, unda turistik resurslar va muayyan turistik mahsulotlarni shakllantirish asosida turistlarga xizmat ko‘rsatishni ta‘minlovchi turistik industriya obyektlari jamlanadi. Maxsus turistik zonalarini tashkil etishda ushbu hudud ishtirokchilari uchun turli shartlar, imtiyozlar va preferensiyalar belgilanishi mumkin (3-jadval).



3-jadval

Markaziy turistik mintaqaning Samarqand viloyati hududida turistik salohiyatining tahlili⁸

T/r	Tumanning nomi	Shahardan masofasi (km)	Turistik obyektlar con	Turistik obyektlarga izoh
1.	Urgut tumani, Qoratepa qishlog'i, Taxta Qoracha dovoni	43	3	1. Har-xil shakldagi tog' jinslari. 2. O'rmon. 3. G'orlar
2.	Urgut tumani, Omonqo'ton qishlog'i	40	5	1. O'rmon. 2. Tog'-jinslari. 3. G'orlar. 4. Soy. 5. Me'morchilik resurslari.
3.	Samarqand tumani, Ohalik qishlog'i	16	6	1. Daryo. 2. Tog'lar. 3. Bog'lar. 4. Maydonlar. 5. Qulbobo ko'li. 6. Toganslari.
4.	Samarkand tumani, Miranko'l qishlog'i	18	4	1. O'rmon 2. Har-xil shakldagi tog'jinslari. 3. "Cholbobo" nomli balandligi 4. Soy uzunligi 8 km.


Tahlil qilingan ma'lumotlar asosida Samarqand tumanining Ohalik qishlog'i va unga yaqin joylashgan 6 ta mintaqaviy turistik obyekt, shuningdek Urgut tumanidagi Omonqo'ton qishlog'i hamda unga yaqin bo'lgan 5 ta mintaqaviy turistik obyekt barqaror turistik hududni shakllantirish bo'yicha yuqori salohiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Mazkur qishloqlar yaqinida joylashgan turistik obyektlarga turistlarni ularning individual talablari va qiziqishlarini hisobga olgan holda taqsimlash orqali hududiy bosimni muvozanatlashtirish mumkin. Turistlarni ko'p sonli kichik guruhlariga ajratgan holda, bir vaqtning o'zida tizimli rejalashtirilgan va malakali kadrlar tomonidan xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish orqali barqaror turizm konsepsiyasini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot obyekti sifatida Omonqo'ton hududi tanlab olindi. Chunki mazkur hududda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 400 gektar maydon qonuniy ravishda rekreatsiya zonasi sifatida ajratilgani aniqlandi. Shuningdek, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining rasmiy veb-sayti ma'lumotlariga ko'ra, Omonqo'ton qishlog'i mintaqaviy turistik obyektlar ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ushbu hududdagi 25 gektarlik tog'li maydonda dam olish maskanini tashkil etish imkoniyati mavjud.

Hududda mintaqaviy turizmni rivojlantirish salohiyatini aniqlash uchun bu yerda mavjud ekologik resurslarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi.

"Omonqo'ton" hududida mintaqaviy turistik hudud tashkil etish salohiyatini baholashda tog'li hududlarda turizmni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari inobatga olindi. Hududning jozibadorligini aniqlash maqsadida uchta baholash usulini birlashtirgan holda turistik hudud samaradorligini aniqlashning takomillashtirilgan usulidan foydalanildi. Turistik-geografik taksonlar (joylashish qonuni) asosida Samarqand viloyati Urgut tumanida joylashgan "Omonqo'ton" tog'li hududining "turistik hudud" maqomiga mosligi earth.google.com dasturi yordamida yaratilgan xarita asosida tahlil qilindi (4-rasm).



4-rasm. Markaziy mintaqaviy turizmga tegishli Omonqo'ton hududining xaritasi⁹

XULOSA VA TAKLIFLAR

Markaziy turistik mintaqadagi turistik obyektlar aglomeratsiyasidan, ya'ni markaz atrofida turistik punktlarning o'zaro birlashuvi va integratsiyasidan samarali foydalanish orqali turistlarning hududda qolish muddatini uzaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa hududning turistik jozibadorligini oshirish, xizmatlar hajmini kengaytirish hamda mahalliy aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqsadga erishish uchun markaziy mintaqaviy turizm hududida tabiiy atraksionalarga yaqin joylarda kichik kempinglar tashkil etish, malakali porterlar faoliyatini yo'lga qo'yish, turistik xizmat ko'rsatuvchi majmualar hamda umumiy ovqatlanish shoxobchalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, malakali kadrlar ishtirokida yangi turistik marshrutlarni shakllantirish va ularni amaliyotga joriy etish orqali hududning turistik salohiyatini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-4143188>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-6303230>
4. Amonboyev, M. (2020). *Образовательная модель подготовки будущего специалиста индустрии туризма*. Архив научных исследований, 1(26). Quyidagi manbadan olindi: <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2472>
5. Safayeva, S. (2021). *O'zbekistonda turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash muammolari*. Журнал «Иновации в экономике», 4(7).
6. Safayeva, S. (2020). *Improving the organizational, economic and institutional mechanisms of managing the sphere of tourism in Uzbekistan*. Архив научных исследований, 17-son.
7. Bekmurodova, L. (2022). *Turizm va mehmondo'stlik sanoatida kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning istiqbollari*. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2(8), 266–273.
8. Sunnatova, S. (2021). *Turizm sohasida kadrlar tayyorlash muammosi va ularga qo'yilgan talablar*. Scientific Progress, 751–755-b.
9. Gorshkovich, A. A. (2021). *Практический подход при подготовке кадров в сфере туризма: проблемы и перспективы*. Scientific Progress, 452–457-b.
10. Tuxliyev, I. S., Hayitboyev, R., Safarov, B. Sh., & Tursunova, G. R. (2014). *Turizm asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
11. Abduraxmonov, K. X. (2013). *Menedjment turizma*. Toshkent: REU im. G. V. Plexanova filiali.
12. Safarov, B. Sh. (2016). *Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100